



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



ZAMONAVIY BOSHLANG'ICH TA'LIMDA SINFLARDAN TASHQARI ISHLARNING ÓZIGA XOS USULLARI

Xudoyberdieva Mahina Yo'ldosh qizi

Termiz davlat pedagogika institute 2-kurs talabasi

Tel: +998917248899

Ilmiy rahbari: O'roqova Sharofatxon Saidkulovna

Boshlang'ich ta'limda matematika va ona tilikafedrasi o'qituvchi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada zamonaviy boshlang'ich ta'limda sinfdan tashqari ishlarning o'ziga xos usullari, ularning mazmuni va pedagogik ahamiyati yoritiladi. Interaktiv va innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etilgan faoliyat o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, ijodkorligi hamda ijtimoiy faolligini rivojlantirishga xizmat qilishi ilmiy jihatdan asoslab beriladi.*

Kalit sózlar. *Sinfdan tashqari ishlar, usul, qobiliyat, amaliy kónikma, bilim, ta'lim, dars, óquvchi, óyin.*

Abstract. *This article discusses the specific methods of extracurricular activities in modern primary education, their content and pedagogical significance. It is scientifically substantiated that activities organized on the basis of interactive and innovative approaches serve to develop independent thinking, creativity and social activity of students.*

Keywords. *Extracurricular activities, method, ability, practical skills, knowledge, education, student, game.*

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni (2020-y., O'RQ-637) 3 va 9-moddalariga ko'ra, maktabdan tashqari ta'lim uzluksiz ta'lim tizimining tarkibiy qismi bo'lib, bolalarning qiziqish va ehtiyojlarini qondirish hamda bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishga xizmat qiladi. Shu bois, sinfdan tashqari ishlar maktabdan tashqari ta'limning amaliy shakllaridan biri sifatida o'quvchilarning qiziqish, qobiliyat va ehtiyojlarini ro'yobga chiqarishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Sinfdan tashqari ishlar — bu o'quvchilarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ularning ijodiy, intellektual va jismoniy salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan maqsadli pedagogik faoliyatdir. Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan sinfdan tashqari ishlarda jonli burchak tashkil etish, maktab yer maydonida ishlash, tabiat qo'yniga sayohat va shunga o'xshash mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilarga tabiatni sevishga, o'simlik olamiga, hayvonot olamiga nisbatan to'g'ri munosabatda bo'lish, parvarishlash, ko'paytirish va ularga mehr muruvvatli bo'lish kabi xislarni o'rgatishdan iborat. Shu jihatdan qaraganda, sinfdan tashqari ishlar — bu darsning davomi emas, balki uning mazmunan kengaygan va chuqurlashgan shaklidir.

Amaliy tajriba va pedagogik kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, sinfdan tashqari ishlar o'quvchilarning nafaqat bilimini mustahkamlaydi, balki ularning ijtimoiy moslashuvi va





TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



shaxsiy rivojlanishida ham hal qiluvchi rol o'ynaydi. Darhaqiqat, darsdan tashqari ishlar dars jarayonida o'zini to'liq namoyon eta olmagan o'quvchilarga to'garaklar va turli tadbirlar orqali o'z qobiliyatlarini ko'rsatish imkonini beradi; shu bilan birga, o'quvchilar o'rtasida do'stona muhitni shakllantirib, jamoaviy birdamlikni mustahkamlaydi hamda amaliy mashg'ulotlar orqali ularda muayyan sohaga qiziqish uyg'otib, kelajakda ongli kasb tanlashiga zamin yaratadi.

Sinfdan tashqari ishlar darslarga nisbatan ba'zi farq qiluvchi xususiyatlarga ega:

1. O'z mazmuni bo'yicha matematika dasturiga taalluqli emas. Ammo beriladigan bilimlar o'quvchilarning kuchiga mos bo'lishi kerak
2. Sinfdan tashqari ishlar imkoni boricha barcha o'quvchilarni jalb qilishi, ya'ni qiziqarli bo'lishi zarur. Past o'zlashtiruvchi o'quvchilar ham qiziqish yordamida faol o'quvchilarga aylanishi mumkin.
3. Sinfdan tashqari ishlar ixtiyoriylik tamoyiliga asosan tashkil qilinadi, lekin qiziqishni ta'minlash lozim. Bu mashg'ulotlarga baho qo'yilmaydi, ammo faol ishtirok etgan o'quvchilar rag'batlantiriladi.
4. Mashg'ulot mazmuni va shakllariga qarab, 10-12 minutdan 1 soatgacham o'ljallangan bo'lishi mumkin.
5. Sinfdan tashqari ishlarning mazmuni va shakllarining turli-tumanligi.

Maskur xususiyatlar orqali o'quvchining darsga bo'lgan qiziqishi oshadi, murakkab mavzularni tushunishni soddalashtiradi, mustaqil fikrlash va muammolarni hal qilish konikmalarini rivojlantiradi hamda guruh ishlari va hamkorlik qobilyatlarini shakllantiradi.

Zamonaviy ta'lim jarayonida sinfdan tashqari ishlar turli innovatsion va interaktiv usullar asosida tashkil etilib, o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiladi. Bularga interaktiv metodlar, loyiha faoliyati, o'yin texnologiyalari, ekskursiya va tanlovlar kiradi.

Interaktiv metodlar — bu ta'lim jarayonida o'quvchi va o'qituvchining o'zaro faol muloqoti hamda hamkorligiga asoslangan o'qitish usullaridir. Interaktiv metodlar ga quyidagilar kiradi aqliy hujum, klaster, keys-stadi, zigzag va boshqalar. Ular nafaqat bilim berish, balki o'quvchilarda mustaqil fikrlash, tahlil qilish, turli hayotiy muammolarga yechimi toish va muloqot ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Loyiha faoliyati – bu o'quvchilarning muayyan muammo yoki mavzu asosida mustaqil, ijodiy va amaliy faoliyat olib borish jarayoni bo'lib, unda nazariy bilimlar amaliyot bilan uyg'unlashadi. Shuni takidlash joizki, Amerikalik pedagog Dewey loyiha metodining nazariy asoschilaridan biri hisoblanadi. U ta'limni “hayot uchun tayyorgarlik emas, balki hayotning o'zi” deb ta'riflaydi. Uning fikricha, o'quvchi bilimni faoliyat jarayonida, amaliy tajriba orqali o'zlashtirishi kerak. Bu g'oya loyiha faoliyatining asosiy tamoyiliga to'liq mos keladi. Zamonaviy ta'lim tizimida loyiha metodi o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan ta'limning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Chunki loyiha jarayonida o'quvchi faqat tayyor bilimni o'zlashtiruvchi emas, balki bilimni izlovchi, tahlil qiluvchi va yaratuvchi subyekt sifatida namoyon bo'ladi. Bu esa kompetensiyaviy yondashuv talablariga to'liq mos keladi.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



O‘yin texnologiyalari – bu ta’lim jarayonida o‘quvchilarning bilimini oshirish, mavjud qobiliyatlari rivojlantirish ularni faol va ijodiy ishlashga undash uchun ishlatiladigan interaktiv usullar majmuasidir. Bu texnologiyalar o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, ilmiy tushunchalarni oson ózlashtirib olishni taminlaydi, murakkab mavzularni soddalashtiradi va mustahkamlashga yordam beradi. Didaktik va rol o‘yinlari, shuningdek, virtual o‘yinlar yordamida o‘quvchilar nafaqat bilim oladi, balki mustaqil fikrlash va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shubilan birga o‘yin texnologiyalari guruh ishlari, muloqot kompetensiyalari va hamkorlik ko‘nikmalarini shakllantirishga ham xizmat qiladi.

Mazkur, metodlarni faoliyatda qóllash orqali biz o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv va muammolarni hal etish ko‘nikmalarini shakllantirish, bilimni amaliyot bilan uyg‘unlashtirish va chuqurroq o‘zlashtirish, zamonaviy kompetensiyalar va hayotiy ko‘nikmalarni mustahkamlash qobiliyatlarini rivojlantiriladi.

Zamonaviy boshlang‘ich ta’limda sinfdan tashqari ishlar shunchaki qo‘shimcha mashg‘ulot emas, balki o‘quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantiruvchi muhim pedagogik maydondir. Ushbu faoliyat jarayonida o‘quvchi nafaqat bilimni mustahkamlaydi, balki mustaqil fikrlash, ijodkorlik, tashabbuskorlik va ijtimoiy faollik kabi sifatlarni ham shakllantiradi. Interaktiv metodlar, o‘yin texnologiyalari va innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etilgan sinfdan tashqari ishlar ta’lim samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida namoyon bo‘ladi. Demak, zamonaviy boshlang‘ich ta’limda sinfdan tashqari ishlarning o‘ziga xos usullarini takomillashtirish bugungi ta’lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri bo‘lib qoladi.

Adabiyotlar róyxati

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020
2. Abdullayeva B.S., Sadikova A.V., Toshpo‘latova M.I. "BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKADAN SINFDAN TASHQARI ISHLARNI TASHKIL ETISH" .
3. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning nazariy va amaliy asoslari. – Toshkent: Fan, 2012.
4. Ishmuhamedov R. "Innovatsion pedagogik texnologiyalar" – Toshkent: Iste‘dod, 2014.
5. Manba: LEX.UZ <https://share.google/Fe2RUYGcGIroFiQ18>.
6. Manba: inLIBRARY <https://share.google/jTFdjbOOPilfDkXYH>.
7. <https://tijst.org/index.php/USA/article/view/2247>